



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1 (4) 2024

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 1(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор.

Мавланов уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети Тарих факултети доценти

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирхолжаева Гулнора Абдукаххаровна – т

Турдиев Ҷекруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфзизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакуллович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Электрон журнал **1368-сонли гувоҳнома** билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEM S TEAM” маъсулияти чекланган жамияти.

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

| | |
|--|-------|
| <i>Mustafoyev Abubakr Muhiddin o'g'li</i> | |
| XIII VA XIV-ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI | |
| TAVSIFI (1-qism)..... | 9-14 |
| <i>Mirzayev Avazbek</i> | |
| ANDIJON TAJRIBA PAXTA DALASI TARIXINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI | 15-21 |
| <i>Алиджанова Лазизахон Аббасовна</i> | |
| ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ДИН ВА ТАБОБАТ МАСАЛАСИНИ ЎРГАНИШДАГИ | |
| ЁНДАШУВЛАР | 22-28 |
| <i>Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li</i> | |
| XIX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA SHARQIY TURKISTONDA ROSSIYA VA BRITANIYA | |
| IMPERIYALARI RAQOBATI | 29-34 |
| <i>Джалолов Бахром Джамалович</i> | |
| СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА “ПАХТАЯККАҲОКИМЛИГИ” СИЁСАТИ ВА | |
| БОЛАЛАРГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ | 35-39 |
| <i>Maxmatkulova Nozikoy Choriyevna</i> | |
| O'ZBEKISTONDA XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA VA | |
| QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIALASH SOHASIDA YURITILGAN KADRLAR | |
| SIYOSATI | 40-45 |
| <i>Ochilov Farhod</i> | |
| O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING AHOLINI IJTIMOIY HIMoya | |
| QILISHDAGI FAOLIYATI | 46-52 |
| <i>Ҳамроева Нодира Нормуродовна</i> | |
| ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР-СУВ ИСЛОҲОТИ ЖАРАЁНИДА ИЖТИМОЙ МУОММОЛАР | 53-58 |
| <i>Мамажонов Алишер, Алишеров Абдувоҳид Алишерович</i> | |
| ЎЗБЕКИСТОНДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРНИНГ БАРПО ЭТИЛИШИ ТАРИХИ | 59-65 |
| <i>Tursunov Ravshan Normuratovich</i> | |
| XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA SODIR BOLGAN | |
| ZILZILALAR TARIXIGA BIR NAZAR | 66-71 |

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

| | |
|---|---------|
| <i>Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи</i> | |
| СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ТИББИЙ СУҒУРТА АСОСИДА МОЛИЯЛАШТИРИШ | |
| МОДЕЛИ | 72-78 |
| <i>Ro'zmetov Baxodir Shomurotovich</i> | |
| TURIZMDA XIZMATLAR MOHIYATI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI | |
| TA'MINLASHDAGI O'RNI | 79-90 |
| <i>Shanazarova Nilufar Baratovna</i> | |
| MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSPORTNING AHAMIYATI | 91-99 |
| <i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i> | |
| АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ | |
| МОХИЯТИ | 100-109 |

| | |
|--|---------|
| <i>Болтаев Нурали Шираматович</i> | |
| АГРАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАДРЛАР САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ | |
| АСОСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ | 110-118 |
| <i>Эрханов Муҳаммаджон Абсайитович</i> | |
| ДАВЛАННИНГ ХАЛҚАРО РЕЙТИНГ ВА ИНДЕКСЛАРДАГИ ЎРНИНИ ЯХШИЛАШДА | |
| ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ЎРНИ | 119-124 |
| <i>Жураева Гульзира</i> | |
| АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В | |
| МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ И УСЛУГАХ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ | 125-130 |
| <i>Akbarov Husan O'zbekxonovich</i> | |
| BOG'DORCHILIKDA TEXNIK SAMARADORLIKNI TAHLIL ETISHNING PARAMETRIK VA | |
| NOPARAMETRIK USULLARI | 131-136 |
| <i>Yaqubova Yulduz Raimovna</i> | |
| KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ISHLAB CHIQARISHINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH | |
| KO'RSATKICHLARI | 137-147 |
| <i>Рахимбаев Акмал Азатбоевич</i> | |
| ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИНИ САНОАТГА ИХТИСОСЛАШУВ ДАРАЖАСИНИ ТАРМОҚЛАР | |
| БЎЙИЧА АНИҚЛАШ | 148-157 |
| <i>Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</i> | |
| SAMARALI SOLIQ SIYOSATI-INNOVATSION RIVOJLANISHGA O'TISHNING ASOSIY | |
| SHARTI | 158-170 |

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

| | |
|--|---------|
| <i>Наврӯзова Гулчехра Нигматовна</i> | |
| БАҲОУДДИН НАҚШБАНД РУБОЙЛАРИНИ ШАРҲЛАГАН Аллома | 171-175 |
| <i>Шарифходжаева Наргиза Абдуманнановна</i> | |
| ФИЛОСОФИЯ СВОБОДЫ, РАВЕНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ МУХАММАДА | |
| АЛИ ДЖИННЫ | 176-181 |
| <i>Nasimov Azizbek Azimovich</i> | |
| AXBOROTLASHGAN JAMIyat RIVOJLANISHIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING FALSAFIY | |
| МОНИЯТИ | 182-186 |
| <i>Norkulov Olim Nasimovich</i> | |
| GLOBALLASHUV JARAYONIDA MIGRATSİYANING AHOLI AXLOQIY QADRIYATLARIGA | |
| TA'SIRI | 187-191 |
| <i>Хасанов Бобуржон Ҳакимович</i> | |
| ОММАВИЙ НОРОЗИЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ | |
| ИСТИҚБОЛЛАРИ | 192-197 |
| <i>Quramboyev Alisher Maxsudovich</i> | |
| YANGI O'ZBEKİSTON VA İJTİMOİY DAVLATÇILIK | 198-204 |
| <i>Raxmonberdiyev Islombek Ilxom o'gli</i> | |
| SİVİLİZATSIYALAR TARAQQIYOTIDA MADANIYATLAR TO'QNASHUVINING İJTİMOİY- | |
| FALSAFIY AHAMIYATI (Samuel F. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuv" asari | |
| asosida) | 205-214 |

Shukurov Orif Jumaboyevich

JAMIyatda yoshlarning ijtimoiy aktivligini oshirish

xususiyatlari va tamoyillari 215-219

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ*Akhmedov Oybek Saporbayevich*

Theoretical overview of the definition "term" and "terminology" in

linguistic surveys 220-227

Ravshanova Gulruxbegim Қаҳрамон қизи

ЯНГИ ЎЗБЕК ШЕ'РИЯТИДА ҲАЖВНАВИСЛИК АНЪАНАСИ 228-232

Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna

AQOID ILMIDA KAROMAT TUSHUNCHASI VA BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI 233-237

Uliqova Mavludaxon

“QON-QARINDOSH” KONSEPTINI FONETIK-FONOLOGIK SATHDA NAMOYON

BO'LISHI 238-243

Rahmonov Asror ibni Nusrat

HERMANN HESSE HAYOTI, IJODI VA ADABIYOTDAGI O'RNI 244-252

Raxmatova Dilafruz Nusratilloyevna

SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI 253-258

Djuraeva Muxlisa Shadiyarovna

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OILAVIY NUTQDAGI IJTIMOIY-MADANIY FARQLAR 259-265

Vokhidova Tamanno Saidjonovna

MEDIALINGUISTICS AS A MODERN SCIENTIFIC DIRECTION 266-271

Djurayeva Shahlo G'ulom qizi, Sattarova Ismigul Baxtiyorovna

INGLIZ ADABIYOTLARIDA KIRITMA BIRLIKLARNING BADIY SEMANTIKASI 272-277

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР*Uzakova Go'zal Sharipovna*

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA “YASHIL QURİLISH”NI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY

MASALALARI 278-286

Mirzaev Shukhrat Shavkatovich

СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ КАТЕГОРИИ ПРАВОПОНИМАНИЯ 287-293

Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li

SUD HOKIMIYATINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI: KONSTITUTSIYAVIY TAHLIL 294-301

Islombek Abdikhakimov

QUANTUM COMPUTING AND LEGAL READINESS FOR E-GOVERNMENT SERVICES 302-309

Xodjaeva Shirokhon Olimxon kizi

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДЕБНОЙ

СИСТЕМЕ 310-315

Jiyenbayev Baxadir Ospanovich

EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI: MILLIY VA

XORIJY TAJRIBA 316-322

Alishaev Sobir Tursunboevich

СУД ҲУКМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА РАҶАМЛАШТИРИШ

ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 323-329

| | |
|---|---------|
| <i>Адембаев Аралбай Куралбаевич</i> | |
| АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЛАРИДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ ҲАРАКАТИ ЁКИ УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ | 330-339 |
| 13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ | |
| <i>Матенов Рашид Бекимбетович, Анатолий Викторович Тряпельников</i> | |
| ЮРИДИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК ОБЪЕКТ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ- ЮРИСТОВ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖОТРАСЛЕВЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ | 340-346 |
| <i>Xajiyeva Iroda Adambayevna</i> | |
| TALABALARGA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI VA FOLKLOR MUNOSABATINI TUSHUNTIRISHDA PEDAGOGIK TEHNOLOGIYALARNING O'RNI | 347-351 |
| <i>Ayatov Raximberdi Ibragimovich</i> | |
| XORIJUY TILDA TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI SOHASIGA OID SO'Z VA IBORALARNI O'QITISHDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH | 352-357 |
| <i>Saidova Dilobar Ikrambayevna</i> | |
| MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIY XULQ-ATVORNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI | 358-361 |
| <i>Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li</i> | |
| KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI | 362-367 |
| <i>Ҳамдамова Шахноза Юсупалиевна</i> | |
| ТИБИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАДАШУВ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ЛАЁҚАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ | 368-375 |
| <i>Janonova Sitora Berdinazarovna</i> | |
| TA'LIM VA TARBIYA TARAQQIYOTIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING O'RNI | 376-381 |
| <i>Турсунбоева Мухлиса Анвар қизи</i> | |
| ТАБИИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА | 382-387 |
| <i>Bakhadirova Shoxina Nadir kizi</i> | |
| INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLARNI ONLINE KO'RINISHDA O'QITISH | 388-392 |
| <i>Qurbanova O'lmasoy Usmonovna, Niyozova Shohista Nusratilloyevna</i> | |
| OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI | 393-397 |
| <i>Xudayberdiyeva Mahliyo Zayniddin qizi</i> | |
| BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA INNOVATSION METODLARI | 398-403 |

Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori,
TDYU Konstitutsiyaviy huquq kafedrasi dotsenti v.b.
Email: b.qosimov@tsul.uz

SUD HOKIMIYATINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI: KONSTITUTSIYAVIY TAHLIL

Annotatsiya. Sud hokimiyatining moliyaviy mustaqilligi odil sudlovnii ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Sud hokimiyatining moliyaviy mustaqilligini ta'minlashda konstitutsiyaviy mexanizmlar muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada O'zbekiston Konstitutsiyasiga sud hokimiyatining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash bilan bog'liq elementlar yetarli emas degan xulosaga keltingan. Bu borada O'zbekiston Konstitutsiyasiga tegishli o'zgartishlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: sud hokimiyati, sud hokimiyatining moliyaviy mustaqilligi, sudlar, sudyalar.

Botirjon Kosimov,
Doctor of Philosophy in Law,
Acting Associate Professor,
Constitutional Law Department, TSUL

THE FINANCIAL INDEPENDENCE OF THE JUDICIARY: CONSTITUTIONAL ANALYSIS

Abstract. The financial independence of the judiciary is essential for ensuring justice. The constitutional mechanism plays an important role in the financial independence of the judiciary. This article argues that the elements related to ensuring the financial independence of the judiciary are not enough in the Constitution of Uzbekistan. In this regard, it proposes amendments to the Constitution.

Key words: judiciary, financial independence of the judiciary, courts, judges.

Косимов Ботиржон Маъруфжон угли
Доктор философии по юридическим наукам,
И.о. дотсент кафедры Конституционного права ТГЮУ

ФИНАНСОВАЯ НЕЗАВИСИМОСТЬ СУДЕБНОЙ ВЛАСТИ: КОНСТИТУЦИОННЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация. Финансовая независимость судебной власти необходима для обеспечения правосудия. Конституционный механизм играет важную роль в обеспечении финансовой независимости судебной власти. В данной статье аргументировано, что в Конституции Республики Узбекистан недостаточно элементов, касающихся обеспечения финансовой независимости судебной власти. В связи с этим в статье предложено внести поправки в Конституцию.

Ключевые слова: судебная власть, финансовая независимость судебной власти, суды, судьи.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I1Y2024N40>

Kirish. Sud hokimiyatining mustaqilligi har qanday holda ham sud hokimiyatiga ajratiladigan mablag'lar va sudyalarning oylik maoshi hamda sudyalarning ijtimoiy ta'minotiga bevosita bog'liq. Xususan, tadqiqot doirasida sudyalar orasida o'tkazilgan so'rov natijalari buni yaqqol tasdqilaydi. Sudyalarga "Quyidagilardan qaysilar sudyalarning mustaqilligini kuchayishiga olib keladi deb hisoblaysiz?" degan savolga sudyalarning 50,7 foizi "Sudlarning moddiy-texnik bazasini kuchaytirish", 72 foizi "Sudyalarning oylik ish haqini oshirish va uni kamaytirmaslik" deya javob bergenlar.

O'zbekistonda sudsarni moliyalashtirish, ularning moddiy-texnik va o'zga xil ta'minoti, binolarini qo'riqlash va saqlab turish respublika budgeti mablag'lari hisobidan amalgalashiriladi. Ajratiladigan mablag'larning miqdori esa har yilgi Davlat budgeti to'g'risidagi qonun bilan tasdiqlanadi [1].

Ta'kidlash joizki, budget qonunchiligiga ko'ra davlat budgeti xarajatlarining tarkibiga sudsarni saqlab turish xarajatlari ham kiritiladi [2]. Bu budget loyihasida sudsarga ajratiladigan xarajatlar alohida satrda aks ettirilishidan darak beradi. Biroq sudsar uchun ajratiladigan xarajatlarni belgilashda ijro hokimiyatining ta'siri katta. Bizningcha, sud hokimiyatining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash uchun unga budget xarajatlarini belgilash jarayonini ijro hokimiyati organlarining ishtirokidan xoli etish lozim.

Buning uchun sud hokimiyatini moliyaviy mustaqil bo'lgan hokimiyat tarmog'iga aylantirish zarur. Bu, o'z navbatida, sud hokimiyatining moliyaviy mustqailligini ta'minlashga doir konstitutsiyaviy asoslar va xorijiy mamlakatlar amaliyotini tahlil etishni talab etadi.

Metodologiya. Ushbu maqolani yozishning metodolgiyasini manbalarni tanqidiy o'rghanish, qiyosiy-huquqiy tahlil, so'rovnomalar va intervyu natijalari tahlili metodlari tashkil etadi.

Sudyalar orasida sud hokimiyatining mustaqilligi bilan bog'liq so'rov o'tkazilgan. So'rovda 75 nafar sudyalar ishtirok etgan. O'zbekistonda sud hokimiyatining mustaqilligiga doir real vaziyatni aniqlash maqsadida jami 5 nafar sobiq sudyalar va 5 nafar amaldagi sudyalardan anonim intervyu olingan.

Muhokama. Muhokamani sud hokimiyatining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash bilan bog'liq xorijiy amaliyot – Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasini tahlil etish bilan boshlaymiz. Binobarin sud hokimiyatining moliyaviy mustaqilligi ta'minlashga Amerika Qo'shma Shtatlarida jiddiy e'tibor qaratiladi. So'ng O'zbekistonda bu boradagi vaziyat tahlil etiladi.

Amerika Qo'shma Shtatlari Konstitutsiyasida sud hokimiyatining moliyaviy mustaqilligi bilan bog'liq faqat bitta norma mavjud. Bu sudyalar oyligining kamaytirilmasligi qoidasidir. Sud hokimiyatining moliyaviy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan boshqa normalar boshqa qonunchilik hujjatlarida aks etgan.

Qo'shma Shtatlarda sud hokimiyatining moliyaviy mustaqilligiga doir masalalar Qo'shma Shtatlari Sudyalar konferensiyasi tomonidan yuritiladi. Sudyalar Konferensiyasi sudsar uchun budget loyihasini tayyorlash va uni ijro etishga vakolatli organdir. U sudsarning yillik budgetini tasdiqlaydi. Sudyalar Konferensiyasining budget masalalari bo'yicha qo'mitasi budget loyihasini tayyorlash ishlari uchun mas'ul qo'mita sifatida belgilangan [3].

Sudyalar Konferensiyasi huzurda Qo'shma Shtatlari Sud organlarining ma'muriy boshqaruv idorasi faoliyat olib boradi. Sud organlarining ma'muriy boshqaruv idorasi sud organlarining budget loyihasini ishlab chiqish va uni ijro etish, har bir sud organiga mablag'larni

taqsimlash va mazkur mablag'larning sudlar tomonidan maqsadga muvofiq tarzda foydalanilgani ustidan audit tekshiruvini olib boradi [4].

Keyingi moliya yili uchun sud organlarining budget loyihasi bo'yicha takliflar Ma'muriy boshqaruv idorasi tomonidan sudlar va Sudyalar konferensiyasining turli qo'mitalari bilan bamaslahat ishlab chiqiladi va Sudyalar konferensiyasining budget masalalari bo'yicha qo'mitasiga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi. Loyiha Sudyalar konferensiysi tomonidan tasdiqlangach, asoslantirilgan tushuntirish bilan Kongressga yuboriladi. Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti tomonidan federal budget loyihasi Kongressga ko'rib chiqilishi uchun taqdim etilayotganda unga sud organlarining budgeti loyihasi o'zgarishsiz tarzda singdirib yuborilishi kerak bo'ladi [5].

Kongressda sud organlarining budget loyihasi budget qo'mitasi tomonidan Ma'muriy boshqaruv idorasining direktori va tegishli sudyalar ishtirokida ko'rib chiqiladi. Kongress tomonidan sud organlarining budget loyihasi qabul qilingach, Sudyalar Konferensiysi ijro qo'mitasi tomonidan sud organlari uchun ajratilgan mablag'lar yuzasidan tegishli reja qabul qilinadi va mablag'lar to'g'ridan-to'g'ri har bir sudga Ma'muriy boshqaruv organi tomonidan taqsimlab beriladi [6]. Bu sud hokimiyatining o'zini o'zi moliyaviy boshqarishda mustaqil ekanidan darak beradi.

Quyidagi jadvalda Sudyalar konferensiysi tomonidan sud hokimiyati uchun qancha mablag' so'rالganini, amalda Kongress qancha mablag' ajratganini ko'rish mumkin [7].

| Nº | Kalendar yili | Sudyalar Konferensiysi tomonidan so'rالgan mablag' | Kongress tomonidan ajratilgan mablag' |
|-----------|----------------------|---|--|
| 1. | 2018-yil | \$7,819,070,000 | \$7,617,430,000 |
| 2. | 2019-yil | \$7,906,182,000 | \$7,862,979,000 |
| 3. | 2020-yil | \$8,294,392,000 | \$8,179,335,000 |
| 4. | 2021-yil | \$8,555,453,000 | \$8,453,383,000 |
| 5. | 2022-yil | \$8,879,097,000 | \$8,826,405,000 |
| 6. | 2023-yil | \$9,408,997,000 | \$9,335,345,000 |
| 7. | 2024-yil | \$9,934,829,000 | Ajartilishi kutilmoqda |

O'zbekistonda sud hokimiyatining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash bilan bog'liq normalar mayjud emas. Fikrimizcha, O'zbekistonda ham sud hokimiyatining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash bilan bog'liq tizimni Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasining ijobiy asosida takomillashtirish mumkin. Buning uchun Sudyalar oliy kengashiga sudyalar kengashining Shimoliy Yevropa modeliga xos bo'lgan xususiyat – sud hokimiyati o'zi uchun budget loyihasini ishlab chiqish vakolatini berish kerak.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti navbatdagi moliya yilda sudlarning faoliyatini moliyalashtirish bo'yicha takliflarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi. Bunda, u sudlarning ehtiyojlarini hisobga oladi [8].

O'zbekistonda Sudyalar oliy kengashi tomonidan sud hokimiyati uchun davlat budgeti loyihasini ishlab chiqilishiga erishish uchun Sudlar faoliyatini ta'minlash departamentini

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzurida qayta tashkil etish maqsadga muvofiq. Buning boisi shundaki, Oliy sud huzuridagi Departament O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining idoraviy bo'ysunuvida bo'lib, o'z faoliyati yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisiga hisobot beradi [9]. Biroq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini ta'minlashga mas'ul bo'lgan alohida tuzilma mavjud emas. Bundan tashqari, Konstitutsiyaviy sud faoliyati uchun ajratiladigan mablag'lar davlat xarajatlarining sndlarni saqlab turish xarajatlari satrida emas, balki davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari satrida ko'rsatiladi [10].

Bizningcha, Konstitutsiyaviy sud faoliyati uchun ajratiladigan mablag'lar sndlarni saqlab turish xarajatlari satrida ko'rsatilishi lozim. Binobarin, Konstitutsiyaviy sud sud hokimiyati organidir.

Agar Sudlar faoliyatini ta'minlash departamentining bo'ysunuvi Sudyalar oliy kengashiga o'tkazilsa, unga Konstitutsiyaviy sud faoliyatini ta'minlash vakolatini ham berish maqsadga muvofiq. Shunda, O'zbekistonda barcha sndlarni moddiy-texnik ta'minlash vazifasi yagona organ tomonidan amalga oshirilishiga erishiladi.

Biz sud hokimiyati uchun budjet loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlashning quyidagi yangicha tartibini joriy etishni taklif etamiz. Sudyalar oliy kengashi tarkibida sud hokimiyati budjeti masalalari qo'mitasi tashkil etiladi. Sud hokimiyati budjeti masalalari qo'mitasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti bilan hamkorlikda sndlari, shu jumladan, Konstitutsiyaviy sudning keyingi moliya yili uchun ehtiyojlarni o'rganib boradi. O'rganish natijalaridan kelib chiqib, Sud hokimiyati budjeti masalalari qo'mitasi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti bilan hamkorlikda navbatdagi moliya yili uchun sud hokimiyati organlari uchun budjet loyihasini ishlab chiqadi va Sudyalar oliy kengashi muhokamasiga taqdim etadi.

Sudyalar oliy kengashi tomonidan loyiha ma'qullangach Vazirlar Mahkamasiga yuboriladi. Hukumat unga o'zgartirish kiritmagan holda davlat budjeti loyihasiga qo'shadi va Oliy Majlis tasdig'iga kiritadi. Ushbu jarayonda Moliya vazirligi ishtirok etmaydi. Balki, sud hokimiyatining budjeti sud hokimiyatining mustaqilligiga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashadigan organ tomonidan ishlab chiqiladi. Hukumat Sudyalar oliy kengashi tomonidan talab qilinadigan budjet mablag'ini kamaytira olmaydi. Parlamentda so'ralgan mablag'larning asosliligi yuzasidan savollar tug'ilsa, ularga Sudyalar oliy kengashining Sud hokimiyati budjeti masalalari qo'mitasi tomonidan javob beriladi.

Sud hokimiyatining mustaqilligi sndlarga budjet mablag'ining qancha miqdorda emas, balki mablag'larning qaysi hokimiyat tarmog'iga mansub bo'lgan subyektlar tomonidan ajratilishiga ham bog'liq. Davlat budgetining sud hokimiyati organlariga tegishli qismi ijro hokimiyati organlari tomonidan ishlab chiqilishi jarayonida sndlarning ijro hokimiyati organlari manfaatiga zid bo'lgan qarorlariga javoban sud hokimiyatiga qasdma-qasd javob qaytarish, masalan, sud hokimiyatining mustaqil faoliyat olib borishi uchun zarur bo'lgan darajadagi budjet mablag'i ajratilmasligi mumkin. Bildirilgan taklif aynan mana shunday holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

F. Muhiddinovning fikricha, "tarixda hech qachon "arzon odil sudlov" insonlar haq-huquqini samarali himoya qilolgan emas" [11]. Bizningcha, sudyalarning oylik ish haqi miqdori sud hokimiyatining individual mustaqilligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biridir. Sudyalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovda "Sudyalarga baland oylik ish haqi berish

ularning mustaqil qaror qabul qilishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaysizmi?" degan savolga 90,7 % sudyalar "Ha", 9,3 % sudyalar "Yo'q" deb javob bergani buni yaqqol isbotlab turibdi.

"Sudyalik faoliyatingiz davomida necha marotaba oylik ish haqingiz pasaytirilgan?" degan savolga 29,3 % sudyalar "Bir marotaba", 9,3 % sudyalar "To'rt va undan ortiq marotaba", 2,7 % sudyalar "Ikki marotaba", 2,7 % sudyalar "Uch marotaba" deya javob bergenlar. Keltirilgan so'rov natijalari sudyalarning oylik ish haqi bilan bog'liq muammolar borligidan darak beradi.

O'zbekistonda sudyalarning ish haqi miqdori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjati orqali belgilab beriladi. Ma'lumki, bu toifadagi hujjatlar loyihamalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritishda ijro hokimiyati organlari muhim rol o'yndaydi. Bu sudyalarning oylik ish haqi miqdorini belgilashda ijro hokimiyatining ta'siri katta ekanidan darak beradi. Shu bois, sudyalarning ish haqi miqdori Sudyalar oliy kengashining tavsiyasi asosida Oliy Majlis qarori bilan belgilanishi maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga O'zbekistonda sudyalar oylik ish haqining kamaytirilmasligiga hamda inflyatsiyaga mutanosib tarzda to'lab borilishiga doir normaning kiritilishi taklif etiladi. Sudyalar oylik ish haqining kamaytirilmasligi hamda ish haqining inflyatsiyaga mutanosib tarzda to'lab borilishiga konstitutsiyaviy legitimlik berish siyosiy figuralarning istalgan vaqtda sudyalar oylik ish haqini kamaytirishga urinishlarining yoki ular tomonidan sudyalarning oylik ish haqini oshirishda ko'rsatilishi mumkin bo'lgan injiqlikning oldini oladi. Sudyalarga moliyaviy xotirjamlik baxshida etadi.

Shuningdek, qonunda sudyalar pensiyaga chiqqach, ular sudyalik lavozimida bo'lganlarida oxirgi yilda topgan yillik daromadlaridan kam bo'lмаган miqdorda yillik pensiya olishlariga bo'lgan huquqni kafolatlash muhim ahamiyatga ega. Oylik va pensiya olish bilan bog'liq Konstitutsiya va qonun tomonidan berilgan kafolatlar sudyalarga bugungi va ertangi kunga bo'lgan ishonchini mustahkamlab, tashqi ta'sirlarga qaramay mustaqil faoliyat olib borishga undaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 yanvardagi "Sud organlari faoliyatini moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF – 6134-son farmoni asosida sudyalarning mehnatga haq to'lash razryadlari tasdiqlangan [12]. Farmonda sudya bo'lмаган sud tizimi xodimlari, shu jumladan, sudya yordamchilarini ham ko'rsatib o'tilgan. Aslida, ko'pgina sudya yordamchilarining oylik ish haqi kamligi sababli o'zlarining oylik ish haqlarining bir qismini ularga berishga majbur bo'lar edilar [13]. Shu bois, sudya yordamchilarining oylik ish haqi ham qoniqarli darajada bo'lishi maqsadga muvofiq.

Sudlarning moddiy-texnik bazasi yetishmasligi sababli sudyalarning sud ishlarini yuritish uchun zarur kanstovar mahsulotlarini sotib olishga majbur bo'lishlari, matbuot nashrlariga majburiy obuna bo'lish kabi funksional vazifalariga kirmaydigan narsalar uchun o'z hisoblaridan xarajat qilishlari [14] sudyalarning oylik ish haqini oshirishdan ko'zlangan maqsadga muvofiq kelmaydi. Shundan ekan, sud tizimida odatiy tusga aylangan hamda sudyalarning mustaqilligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan qonunda nazarda tutilmagan an'analarga barham berish lozim.

Amerika Qo'shma Shtatlari Konstitutsiyasining III moddasi birinchi qismiga ko'ra, barcha federal sudyalar xizmatlari uchun shu lavozimdalik paytida kamaytirilmaydigan miqdorda oylik ish haqi oladilar. Sudyaning ish haqi "oshirilishi mumkinligi, ammo u sudya

lavozimga kirishgach pasaytirilishi mumkin emasligi” shuni anglatadiki, “Kongress sudyalarning ish haqini qisqartira olmaydi. Bu Kongress a’zolarining ularda norozilik uyg’onishga sabab bo’lgan sud qarorlari tufayli sudyalarni ularning ish haqini kamaytirish bilan jazolashlarining oldini oladi”. Shuningdek, sudyalarga “qisqartib bo’lmaydigan ish haqi ular tomonidan xalqchil bo’lmagan qarorlarni qabul qilishdan qo’rmasliklari uchun” ham kafolatlangan [15].

Shu o’rinda federal sudyalar oylik ish haqining har besh yillikda o’sish sur’atiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

| Nº | Yil | Okrug sudi sudyasining yillik ish haqi | Apellyatsiya sudlari sudyasining yillik ish haqi | Oliy sud sudyasining yillik ish haqi | Oliy sud raisining yillik ish haqi |
|-----------|------------|---|---|---|---|
| 1. | 2005 yil | \$162,100 | \$171,800 | \$199,200 | \$208,100 |
| 2. | 2010 yil | \$174,000 | \$184,500 | \$213,900 | \$223,500 |
| 3. | 2015 yil | \$201,100 | \$213,300 | \$246,800 | \$258,100 |
| 4. | 2020 yil | \$216,400 | \$229,500 | \$265,600 | \$277,700 |

Kongress doimo sudyalarning ish haqini ularni qanoatlantiradigan darajada oshiravermaydi. Masalan, federal okrug sudyalarining 2010–2013-yillardagi ish haqi 174,000 AQSh dollari, 2014-yilda \$199,100 AQSh dollari, 2015-yilda \$201,100 AQSh dollarini tashkil etgan [16]. Bundan ko’rinib turganidek, 2010–2013-yilda sudyalarning ish haqi o’zgarmagan. 2014-yilga kelib ish haqi salmoqli darajada oshirilgan bo’lsa, 2015-yilda esa ozgina miqdorda ko’tarilgan.

Barcha sudyalarga o’z sohalarida pedagogik faoliyat bilan shug’ullanishlari, biroq bu faoliyatdan tushadigan yillik daromad 21,000 AQSh dollaridan oshib ketmasligi belgilandi [17].

Sudyalar siyosiy faoliyat bilan shug’ullanishlari, haq evaziga yuridik xizmat ko’rsatish faoliyati bilan shug’ullanishlari, investisiya kiritishdan tashqari tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanishlari mumkin emas. Ularga jamoat ishlarida qatnashish va pedagogik faoliyat bilan shug’ullanishga ruxsat etiladi. 1989 yilda qabul qilingan “Etika qoidalarini isloh etish to’g’risida”gi Qonunning VI bo’limiga ko’ra (Tashqi daromadlar va bir necha kasb bilan shug’ullanishga nisbatan cheklolvar), sudyalik faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatdan keladigan yillik daromad sudyaning yillik daromadining 15 foizidan oshib ketishi mumkin emas [18].

“Etika qoidalarini isloh etish to’g’risida”gi Qonunning I bo’limiga (Federal sud xodimlari tomonidan o’zlarining moliyaviy ahvollari haqidagi ma’lumotlarni oshkor etish) ko’ra, barcha federal sudyalar o’zlarining va er yoki xotinining hamda voyaga etmagan farzandlarining yil davomida orttirgan mol-mulki aks ettirilgan hisobotni topshirishlari kerak.

Federal Konstitusiya davlatga sudyalarga to’lanadigan ish haqini inflyasiya darajasiga mutanosib tarzda oshirib borish majburiyatini o’rnatmagan. Kongress tomonidan sudyalarning oylik ish haqining kam miqdorda oshirilishi yoki oshirilmasligi sud hokimiysi tomonidan e’tirozlarga sabab bo’lib keladi. Qo’shma Shtatlar Sud organlarining ma’muriy boshqaruvi idorasini tomonidan qayd etilishicha, sud hokimiysi uchun 1969 yildan beri ajratib kelinayotgan mablag’lar mamlakatdagi inflyasiyaga mos kelmaydi. Vaholanki, bu davr oralig’ida ishchilarning oyligi inflyasiyaga mos darajada oshib borgan [19].

Har qanday davlatda sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash uchun uning konstitutsiyasida sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlab berishga qaratilgan elementlar bo'lishi kerak [20]. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida sud hokimiyatining na strukturaviy moliyaviy mustaqilligi, na sudyalarning individual moliyaviy mustaqilligini aks ettiradigan normalar mavjud emas. Bu esa sud hokimiyatining moliyaviy mustaqilligi ta'minlaymay qolishi ehtimolini oshiradi. Sud hokimiyati mustaqilligining amalda ta'minlanishiga to'siq bo'ladi.

Xulosa. Maqolaning asosiy qismida muhokama qilinganlardan kelib chiqib quyidagilarni xulosa qilish mukin.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sud hokimiyati uchun ajratiladigan davlat budjeti xarajatlari sud hokimiyatining o'zi tomonidan ishlab chiqilishi va parlamentga kiritilishi va asoslab berilishi sud hokimiyatining strukturaviy moliyaviy mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sudyalar ish haqining kamaytirilmasligi, sudyalar ish haqini inflyasiyaga mutanosib tarzda to'lab borishga doir normani kiritish sudyalarning individual moliyaviy mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 90-moddasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021 y., 03/21/703/0723-sон.
<https://www.lex.uz/docs/5534923>
2. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi 69 va 70-moddalari.
<https://lex.uz/docs/2304138>
3. The Federal Court System in the United States. An Introduction for Judges and Judicial Administrators in Other Countries. 2016, 4th Edition, – P.43.
4. O'sha manba.
5. O'sha manba.
6. O'sha manba.
7. Congressional Budget Request. <https://www.uscourts.gov/about-federal-courts/governance-judicial-conference/congressional-budget-request>
8. "O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti ishini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 apreldagi PQ-2872-sон qarori bilan tasdiqlangan nizomning 7-bandı.
<https://lex.uz/docs/3252979>
9. O'sha manba. 1-band.
10. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksining 70-moddasi.
<https://lex.uz/docs/2304138>
11. F. Muhiddinov. Sud mustaqilligining dolzARB masalalari. Falsafa va huquq, 2/2005. – Б. 37.
12. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021 y., 06/21/6134/0021-sон.
<https://lex.uz/docs/5215806>
13. Izoh: sudyalar bilan o'tkazilgan anonim intervyuda barcha sudyalar buni tasdiqlaganlar.
14. Izoh: sudyalar bilan o'tkazilgan anonim intervyuda barcha sudyalar buni tasdiqlaganlar.
15. Judicial Independence. <http://judiciallearningcenter.org/judicial-independence/>
16. Judicial Compensation. <https://www.uscourts.gov/judges-judgeships/judicial-compensation>
17. Batafsil ma'lumot uchun qarang: <http://www.uscourts.gov/judges-judgeships/judicial-compensation>

18. Batafsil ma'lumot uchun qarang: Public Law 101-194 – Nov. 30, 1989.
19. Choi S. J., Gulati G. M., Posner E. A. Are Judges Overpaid?: A Skeptical Response to the Judicial Salary Debate //Journal of Legal Analysis. – 2009. – Т. 1. – №. 1. – Р. 58.
20. Kosimov B., 2022. Constitutional Elements of Judicial Independence: are they enough in the Constitution of Uzbekistan?. Общество и инновации, 3(10/S), pp.206.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

Nº 1 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масьулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).